

O'zbekiston Respublikasi hududiga qurilmalarni olib kirish va radiochastota polosalarini ajratishga buyurtmalarni qabul qilish xizmati reglamenti

Xizmat tavsifi

Ishlab tayyorlanayotgan (zamonaviylashtirilayotgan), ishlab chiqilayotgan va chet eldan sotib olinayotgan radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalar uchun radiochastota polosalari (nominallari)ni ajratish haqida Radiochastotalar bo'yicha respublika kengashi qarorining qabul qilinishi.

O'zbekiston Respublikasi hududida radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalardan foydalanish imkoniyati haqida Radiochastotalar bo'yicha respublika kengashi qarorining qabul qilishishi.

Xizmat ko'rsatish sohasi

Radioaloqa

Xizmatdan foydalanuvchilar toifasi

O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari shu jumladan O'zbekiston hududida qo'llash uchun radioelektron tizimlar va vositalarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasa bo'lgan dengiz, havo kemalari va kosmik apparatlar, boshqa davlatlarning sun'iy yer yo'loshi orqali ishlovchi yer stansiyalarini ishlab tayyorlovchi, ishlab chiquvchi va chet eldan olib kiruvchi, shuningdek ilmiy-tadqiqot va tajriba ishlarini olib borishda qaysi mulk shakliga hamda vosita va qurilmalarga tegishliligidan qat'inazar qabul qiluvchi-uzatuvchi radioqurilmalardan foydalanuvchi chet el, shuningdek xorijiy, hamda diplomatik vakolatxonalar, xorijiy davlatlar konsullik muassasalari, xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar.

Tashkilot

Radiochastotalar bo'yicha respublika kengashi ishchi organi – O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi

Bog'lanish uchun

Toshkent sh., 100047, Amir Temur shoh ko'chasi, 4, 3-blok.

Telefonlar: 238 4324, 238 4179, 238 4311, 238 4350, faks 2384324, e-mail: orirchs@mitc.uz

Xizmatdan foydalanish uchun kerakli bo'lgan hujjatlar

Buyurtmachi tomonidan Radiochastotalar bo'yicha respublika kengashi ishchi organi - O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga xat va tushuntirish xatidan iborat buyurtma taqdim etiladi.

Xat radiochastota polosalari so'ralayotgan radioelektron vositasi va yuqori chastotali qurilmaning maqsadi (ishlatilish sohasi, xizmat zonasi), uni kim

tomonidan va qaysi hududlarda ishlatalishi haqidagi qisqacha izoh bilan, so'ralayotgan radiochastota polosalari (nominallari)ni ko'rsatgan holda ixtiyoriy shaklda yoziladi.

Tushuntirish xatida quyidagilar ko'rsatiladi:

a) radioelektron vositalar uchun – to'liq taktik-texnik ma'lumotlar (bundan keyin- TTM) va aloqani tashkil etish chizmasi. TTM shakli www.mitc.uz saytida, shuningdek «Barcha turdag'i radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalarni O'zbekiston Respublikasida ishlab tayyorlash (zamonaviylashtirish), ishlab chiqarish va chet eldan olib kirish uchun radiochastota polosalarini (nominallarini) ajratish tartibi to'g'risida»gi nizom ilovasida (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2004-yil 20-avgustda 1399-1-raqam bilan ro'yxatga olingan) taqdim etilgan;

b) yuqori chastotali qurilmalar uchun – yuqori chastotali qurilmalar bo'yicha asosiy ma'lumotlar ro'yxati.

Xizmat ko'rsatishning huquqiy asosi

O'zbekiston Respublikasining “Radiochastota spektri to'g'risida” 1998-yil 25-dekabrdagi 725-I-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 22-oktabrdagi “Radiochastota spektrini boshqarishni tashkil qilish va foydalanishni takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-2053-slon qarori;

“Barcha turdag'i radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalarni O'zbekiston Respublikasida qayta tayyorlash (zamonaviylashtirish), ishlab chiqarish va chet eldan olib kirish uchun radiochastota polosalarini (nominallar) ajratish tartibi to'g'risida” nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2004-yil 20-avgustda 1399-1-raqam bilan ro'yxatga olingan).

Xizmat narxi va to'lov tartibi

Radiochastotalar bo'yicha respublika kengashining qarori va javob xatini olish bepul amalga oshiriladi.

Xizmat ko'rsatish muddatlari

Radiochastotalar bo'yicha respublika kengashining qarori chegaradosh davlatlar bilan kelishishni talab qilmaydigan radioelektron vositalar uchun - radiochastota buyurtmasi kelib tushgan kundan 30 ish kuni muddatida, chegaradosh davlatlar bilan kelishishni talab qiladigan bo'lsa – 120 kunda tayyorlanadi.

Natijalarni olish usullari

Shaxsan yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi shaxsiy kabinet orqali, yoki elektron pochta orqali

Xizmat ko'rsatish natijasi

Ishlab tayyorlanayotgan (zamonaviylashtirilayotgan), ishlab chiqarilayotgan va chet eldan sotib olinayotgan radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalar uchun radiochastota polosalari (nominallari)ni ajratish;

O'zbekiston Respublikasi hududida radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalardan foydalanishga ruxsat berish.

Rad etish sabablari

Quyidagilar davlat xizmatini ko'rsatishni rad etish uchun asos bo'lib hisoblanadi:

- murojaat qilgan shaxsning xizmatdan foydalanish huquqiga ega emasligi, yoki boshqa shaxs nomidan faoliyat yuritishga vakolati yo'qligi;
- hujjatlarning belgilangan talablarga muvofiq emasligi (ro'yxatning to'liq emasligi, shaklning noto'g'ri to'ldirilganligi);
- taqdim etilgan hujjatlarda haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarning mavjudligi;
- xizmatdan foydalanishga murojaat qilgan shaxsning belgilangan talablarga mos emasligi;
- so'rabayotgan radiochastota polosalari (nominallari)ning bandligi;
- radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalar texnik parametrlarining respublikada belgilangan talab va normalarga mos kelmasligi.

Shikoyat qilish tartibi

Buyurtmachi sifatsiz xizmat ko'rsatilgani yuzasidan Radiochastota spektridan foydalanishni tartibga solish bo'limiga O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi rahbariyatiga, yuqori tashkilotlarga, sudga murojaat qilish huquqiga ega.